

# Safarga yuborilgan haydovchilar – huquq va majburiyatlariningizni biling

“Haydovchilarni safarga  
yuborish”ning yangi qoidalari  
2022-yil 2-fevraldan boshlab  
amal qilmoqda



# Siz safarga yuborilgan haydovchisiz

Cheklangan vaqt davomida ish beruvchingiz ro'yxatdan o'tgan mamlakatda emas, balki Yevropa Ittifoqining boshqa a'zo davlatida quyidagi tashuv ishlarini bajarsangiz, safarga yuborilgan haydovchi deb hisoblanasiz.

- **Kabotaj.** Ish beruvchingiz Yevropa Ittifoqi siz ichki tashuvlar amalga oshirayotgan a'zo davlatda ro'yxatdan o'tmagan.
- **Kross savdo.** Ikkita a'zo davlat, yoki a'zo davlat va Yevropa Ittifoqi a'zosi bo'limgan mamlakat o'rtaсидаги ташувлар hamda ish beruvchingizning ushbu mamlakatlarning birortasida ro'yxatdan o'tmaganligi.
- **Yuklanmagan safar.** Kabotaj yoki kross savdo tufayli amalga oshirilayotgan, safarga yuborish qoidalari tatbiq etiladigan safar.
- **Kombinatsiyalangan tashuv ishlari.** Kombinatsiyalangan tashuv ishlarining birinchi yoki oxirgi qismi kross savdo yoki kabotaj bo'lsa, faqat ushbu birinchi yoki oxirgi qismni amalga oshirganda, safarga yuborilgan haydovchi deb hisoblanasiz.

Yo'ldagi tekshiruvga duch kelganda, quyidagilarni nozirga taqdim qilish imkoniyatiga ega bo'lishingiz lozim:

- safarga yuborish deklaratsiyasining nusxasi (elektron yoki bosma shaklda);
- qabul qiluvchi a'zo davlatda bajarilayotgan tashuv(lar)ni tasdiqlaydigan hujjatlar (masalan, yuk xati); hamda
- taxograf yozuvlari.

Ish beruvchingiz mazkur muhim hujjatlar ixtiyorингизда ekanligini ta'minlashga majbur.

## Qaysi ish haqi va boshqa mehnat sharoitlariga huquqingiz bor?

Siz safarga yuborilgan mamlakatdagi umumiy ish haqi va mehnat sharoitlari ish beruvchingiz ro'yxatdan o'tgan mamlakatdagidan yaxshiroq bo'lsa, yaxshiroq darajadagi ish haqi va mehnat sharoitlariga ega



bo'lish huquqiga egasiz. Daraja yuqori bo'lmasa, ish beruvchingiz ro'yxatdan o'tgan mamlakatning qoidalari tatbiq qilinadi.

## Siz safarga yuborilgan haydovchi emassiz

Quyidagi tashuvlarni bajarsangiz, safarga yuborilgan haydovchi deb hisoblanmaysiz.

- **Ikki tomonlama tashuv.** Ish beruvchingiz ro'yxatdan o'tgan a'zo davlatdan boshqa mamlakatga (Yevropa Ittifoqining ichida yoki tashqarisida) tashish yoki boshqa har qaysi mamlakatdan (Yevropa Ittifoqining ichida yoki tashqarisida) ish beruvchingiz ro'yxatdan o'tgan a'zo davlatga qaytib kelish.
- **Ortish va/yoki tushirish ishlarning cheklangan qo'shimcha harakatlari.** Ikki tomonlama tashuvni davomida a'zo davlatlar yoki Yevropa Ittifoqiga kirmagan mamlakatlarning chegarasini kesib o'tganda.
- **Tranzit.** A'zo davlatni yuklash yoki ortishlarsiz kesib o'tish.
- **Yuklanmagan safar.** Safaringiz ikki tomonlama tashuv tufayli kechayotgan bo'lsa
- **Kombinatsiyalangan tashuv ishlari.** Kombinatsiyalangan tashuv ishlarning birinchi yoki oxirgi qismi ikki tomonlama tashuv bo'lsa, faqat ushbu birinchi yoki oxirgi qismni amalga oshirganda, safarga yuborilgan haydovchi deb hisoblanmaysiz.

## Qanday ish haqi va mehnat sharoitlariga egasiz?

Safarga yuborilgan haydovchi bo'lmamasangiz, ish beruvchingiz ro'yxatdan o'tgan a'zo davlatning ish haqi va mehnat sharoitlari darajasi tatbiq qilinadi.





## Yevropa mehnat boshqarmasi

Landererova 12, 811 09  
Bratislava - Slovakia  
[info@ela.europa.eu](mailto:info@ela.europa.eu)

[www.elaeuropa.eu](http://www.elaeuropa.eu)



Your Europe portalida  
batafsil tanishing

© Yevropa mehnat boshqarmasi, 2022-yil

Yevropa mehnat boshqarmasi (ELA) yoki ELA nomidan ish ko'rayotgan har qaysi shaxs mazkur hujjatdagi ma'lumotlardan foydalanilganlik uchun javobgar hisoblanmaydi.

Manbasi ko'satilgan holatda qayta chop etishga ruxsat etiladi. Mualliflik huquqiga ELA egalik qilmaydigan har qaysi fotosurat yoki boshqa materiallardan foydalanish yoki qayta chop etish uchun bevosita muallif huquqi egasining ruxsati talab qilinadi.

Tasvirlarning mualliflik huquqi: © iStock.com/Hilch

Lyuksemburg: Yevropa Ittifoqining nashrlar byurosi, 2022-yil

Print ISBN 978-92-9464-811-2 doi:10.2883/979614 HP-01-22-237-UZ-C

PDF ISBN 978-92-9464-806-8 doi:10.2883/030787 HP-01-22-237-UZ-N